

# Ko'pincha Bir-biri Bilan Adashtiriladigan Kasalliklar

# 2

BOB

## KASALLIKNI NIMA KELTIRIB CHIQARADI?

Turli mamlakat odamlari yoki xalqlari kasalliklar sabablarini turlicha tushuntirishadi.

*Bola ich ketishga uchraydi. Nimaga?*

**Kichik qishloq aholisi:** Bolaning ota-onasi gunoh qilgan va bu bilan Xud-ning g'azabiga uchragan yoki bu ko'z tegishi, yovuz ruh kabilarning ishi deb o'ylaydilar.

**Shifokor:** Bolada infeksiya bo'lishi mumkin deydi.

**Tibbiyot xodimi:** Qishloq aholisi toza suv yoki hojatxonalardan foydalanmayotganini aytishi mumkin.



**O'qituvchi** esa bilim kamligini sabab qilib ko'rsatishi mumkin.

Odamlar kasallik sababini o'z malaka va nuqtai nazarlariga tayan-gan holda talqin qiladilar. Kim haq? Balki ko'rsatilgan sabablar to'g'ri yoki qisman to'g'ridir. Chunki...

**Kasallik - bir necha sabablarning hosilasidir.**



**Nima uchun  
aynan mening bolam?**

Yuqorida aytilgan barcha sabablar bolaning ich ketishiga olib kelgandır.

Kasalliklarni davolash va oldini olish uchun yashash joyingizdagi oddiy kasalliklar haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishingiz, ularni keltirib chiqaradigan sabablar va sabablar majmuasini bilishingiz kerak.

Ushbu kitobda turli kasalliklar zamonaviy yoki ilmiy tibbiyotga asoslangan holda ko'rib chiqilgan.

**Ushbu kitobdan yaxshiroq foydalanish va tavsiya qilingan dorilarning xavfsiz ishlatilishi uchun, siz kasalliklar va ularning sabablari haqida tibbiy tarafdin ma'lumotga ega bo'lishingiz kerak.** Bunda ushbu bob sizga yordam berishi mumkin

## TURLI KASALLIKLAR VA ULARNING KELIB CHIQISHI

Turli kasalliklarning oldini olish yoki davolash haqida o'ylaganimizda, ularni 2 guruhga: yuqumli va yuqumsiz kasalliklarga bo'lib olish yordam beradi:

**Yuqumli kasalliklar** bir kishidan ikkinchisiga o'tadi. Sog'lom odamlar bunday kasalligi bor odamdan saqlanishi kerak.

**Yuqumsiz kasalliklar** bir kishidan ikkinchisiga yuqmaydigan kasalliklardir. Ularning boshqa sabablari bor. Shuning uchun, qaysi kasalliklar infeksiyali va qaysilari bunday emasligini bilib olish muhimdir.

## YUQUMSIZ KASALLIKLAR

Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning sabablari turlichadir. Lekin ular

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

hech qachon mikroba, bakteriya yoki tanaga hujum qiluvchi boshqa tirik organizmlar orqali yuqmaydi va hech qachon bir odamdan ikkinchisiga o'tmaydi. Antibiotiklar yoki boshqa mikroblarga qarshi boshqa dorilar (136-bet) yuqumli bo'lmagan kasalliklarni davolashda foyda bermasligini tushunib olish juda muhimdir.

*Esingizda tuting: Antibiotiklar - yuqumli bo'lmagan kasalliklarga qarshi foyda bermaydi.*

### YUQUMLI BO'LMAGAN KASALLIKLARDAN MISOLLAR

<b>Organizmning ichki buzilishidagi o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan muammolar:</b>  artrit yurak xuruji tutqanoq miyaga qon quyilishi migrenli bosh og'riqlar katarakta rak	<b>Tashqaridagi biror narsa ta'siridan kelib chiqqan muammolar:</b>  allergiya astma zaharlanish ilon chaqishi chekish yo'talish mastlik	<b>Organizmga kerakli bo'lgan narsalarning yetishmasligidan kelib chiqadigan muammolar:</b>  ovqatga yolchimaslik kam qonlik pellagra shapko'rlik va kse-roftal'miya bo'qqoq jigar sirrozi (sabablarning bir qismi)
<b>Tug'ma muammolar:</b>  (og'iz tirtig'ligi) g'ilaylik boshqa kamchiliklar	tutqanoq (ba'zi turlari) aqli zaif bolalar tug'ma belgilar	<b>Miya faoliyatiga aloqador muammolar (ruhiy kasalliklar):</b> biror narsa zararli bo'lmasa-da, uning zararli ekanligidan qo'rqish (paranoya) ruhiy bezovtalik (xavotirga, vasvasaga tushish), nazorat qilib bo'lmaydigan qo'rqinch (isteriya), ruhiy tushkunlik

### YUQUMLI KASALLIKLAR

Yuqumli kasalliklar organizmimizga zarar yetkazuvchi bakteriya yoki boshqa tirik organizmlar (tirik narsalar) kirishi tufayli kelib chiqadi. Ular turli yo'llar bilan tarqaladi. Quyida ana shu kasallik tashuvchilarning eng muhimlari va ular keltirib chiqaradigan kasalliklar berilgan:


## YUQUMLI KASALLIKLARGA MISOLLAR

Kasallikni keltirib chiqaruvchi organizm	Kasallik nomi	Qanday tarqaladi yoki organizmga kirish yo'li	Ishlatiladigan dori
Bakteriya (mikroblar)	oshqozon yaralari	ovqat orqali	bakteriyalarga qarshi bo'lgan turli antibiotiklar
	sil	havo orqali (yo'tal)	
	qoqshol	ifloslangan jarohat orqali	
	zotiljam (pnevmoniya) (bazi turlari)	havo orqali (yo'tal)	
	ba'zi ich ketishlar	kir qo'llar, suv, pashshalar	
	so'zak, xlamidioz, zahm	jinsiy aloqa orqali	
	quloq og'rig'i	shamollashdan	
	infeksiyalangan yaralar	iflos narsalar orqali	
yiringli yaralar	tegish orqali (ushlash orqali)		
Virus (bakteriyadan kichikroq)	shamollash, gripp, qizamiq, tepki, suv-chechak, chaqaloqlar sholi, virusli ichketar	kasal odamdan, havo, yo'tal, pashsha va boshqalar	aspirin va og'riq qoldiruvchi boshqa dorilar (virusga qarshi yaxshi kurashadigan dorilar kam)
	quturish	hayvonlar tishlashi	Antibiotiklar yordam bermaydi. Emlash ba'zi virusli infeksiyalarning oldini olishi mumkin.
	so'gal (so'ngal)	ushlash	
Po'panak (zamburug')	temiratki (tanadagi zamburug'lar) oyoqdagi zamburug'lar	tegish yoki kiyimlar orqali	Oltingugurt va sirkali mazlar: undetsilen kislota-si (Mikoseptin mazi)
	chov zamburug'lari		Benzil benzoat, Salitsil kislota-si, Grizeofulvin (Gritsin)
Ichki parazitlar (organizm ichida yashovchi zararli hayvonlar)	Ichakdagi: qurtlar, amyobalar (dizenteriya)	"axlatdan - og'izga", ifloslikdan	Turli maxsus dorilar
	bezgak	chivin chaqishi	Xloroxin (va boshqa bezgakka qarshi bo'lgan dorilar)
tashqaridagi parazitlar (tanada yashovchi zararli hayvonlar)	bitlar, burgalar, qichitma kanalar	infeksiyalangan odam yoki uning ust-boshiga tegish orqali	Hashoratlarni o'ldiruvchi insektitsidlar

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Bakteriyalar ham, infeksiyalarni keltirib chiqaruvchi boshqa organizmlar kabi juda mayda, uni mikroskopsiz (juda kichkina bo'lgan narsalarni kattalashtirib ko'rsatadigan maxsus asbob) ko'rib bo'lmaydi.

Viruslar esa bakteriyalardan ham maydadir.



Antibiotiklar (penitsillin, tetratsiklin va boshqalar) bakteriya tufayli kelib chiqqan ma'lum kasalliklarni davolovchi dorilardir. **Antibiotiklar viruslardan kelib chiqqan shamollash, gripp, tepki, suvchechak va boshqa kasalliklarga qarshi kurasha olmaydi. Virusli infeksiyalarni antibiotiklar bilan davolamang.** Ular yordam bermaydi va zararli bo'lishi mumkin. (Antibiotiklar, 55-betga qarang).

## BIR-BIRIDAN AJRATISH QIYIN BO'LGAN KASALLIKLAR

Har xil kasalliklardan kelib chiqqan muammolar bir-biriga o'xshaydi. Lekin ularning sabablari va davolash uchun tavsiya qilinadigan usullari turlichadir. Masalan:


**1. Borgan sari ozib, holsizlanib va qorni shishib borayotgan bola quyidagi xastaliklardan bir nechasi yoki birortasi bilan og'rish mumkin:**

- ovqatga yolchimaslik (548-bet)
- ko'plab askarida (yumaloq qurt) bo'lishi(263-bet) (ko'pincha ovqatga yolchimaslik bilan bir qatorda)
- silning og'ir darajasi (372-bet)
- ko'pdan beri davom etayotgan siydik yo'llari infeksiyasi (433-bet)
- jigar yoki taloq muammolari
- Oq qonlik (leykemiya, qon raki) yoki limfoma



**2. Katta yoshdagi odamning oyog`idagi katta, ochiq va sekin o`sb boruvchi yara quyidagilardan bo`lishi mumkin:**

- venalar varikozi yoki boshqa sabablardan (327-bet) kelib chiqqan yomon qon aylanishi
- qand kasalligi (248-bet)
- suyak infeksiyasi (osteomielit)
- moxov (359-bet)
- teri sili(397-bet)
- og`ir darajali zahm (439-bet)



Har bir kasallikni davolash usuli turlicha, shunga ko`ra avvalo kasallikni ajratib olish kerak. Birinchi qarashda ko`pgina kasalliklar ko`rinishidan bir-biriga o`xshash bo`lishi mumkin. Lekin to`g`ri berilgan savollar va izlanishlar orqali siz kasallikni aniqlovchi kerakli ma`lumot va belgilarni ko`rishingiz mumkin.

Ushbu kitob ko`plab kasalliklarning tipik tarixi va belgilari to`g`risida ma`lumot beradi. Lekin ehtiyot bo`ling! Kasalliklar doim ham aytilgan belgilarni ko`rsatmasligi mumkin, yoki belgilar adashtiruvchi bo`lishi mumkin. **Murakkab, og`ir holatlarda shifokorga murojaat qilishingiz kerak bo`ladi.** Ba`zan maxsus tekshiruvlar o`tkazish va analizlar topshirish kerak.

**O`z bilimingizning chegarasidan chiqib ketmang!  
Bu kitobdan foydalanishda siz osongina xatoga yo`l  
qo`yishingiz mumkin.**

**Hech qachon bilmaydigan narsangizda bilag`onlik qilmang. Agar kasallikning davosi aniqligiga ishonchingiz komil bo`lmasa yoki kasallik juda jiddiy bo`lsa, tibbiy yordamga murojaat qiling.**

## KO`PINCHA ADASHTIRILADIGAN YOKI BIR XIL NOM BILAN ATALADIGAN KASALLIKLAR

Mikrob, bakteriyalar yoki ularga qarshi kurashuvchi dorilar ma'lum bo'lmay turib ham odamlar kasalliklarga oddiy nomlar qo'yib olganlar. Bir xil yoki o'xshash muammolarni keltirib chiqaruvchi turli „yuqori isitma“ yoki „biqin og`rishi“ kabi kasalliklarga bir xil nom berilgan. Dunyoning ko'p joylarida shu oddiy nomlar hozirgacha ishlatiladi. Shaharda malakasini oshirgan shifokorlar ko`pincha bunday nomlarni bilmaydi va ishlatmaydilar. Shuning uchun, ba`zan odamlar „shifokor davolay olmaydigan kasallik“ bilan og`riyapman deb o`ylaydilar va bunday **“uy kasalliklari”**ni dorivor o`tlar yoki xalq tabobati usullari bilan davolaydilar.

Lekin ko`pincha bu “uy kasalliklari” yoki „xalq kasalliklari“ tibbiy ilmda bor kasalliklar bilan bir xildir. Ularning nomi har xil, xolos.

**Ko`p kasalliklar xalq tabobati usullari bilan yaxshi davolanadi. Lekin ba`zi kasalliklarni zamonaviy dorilar bilan davolash yaxshiroq va xavfsizroqdir.** Bu, ayniqsa, zotiljam(pnevmoniya), terlama, sil yoki tug`ruqdan keyingi infeksiyalar kabi hollar uchun muhimdir.

Qaysi kasalliklarda zamonaviy dorilar kerak va qanday dorilar ishlatilishi zarurligini hal qilish uchun, ushbu kitobda berilgan ma'lumotlardan foydalanish va tibbiyot xodimlaridan so`rash orqali kasallik turini bilib olish muhimdir.

**Agar siz kitobdan izlagan kasallikning nomini topa olmasangiz, bu kasallikni uning boshqa nomini yoki o`xshash muammolari zikr etilgan bobdan izlang.**

**MUNDARIJA va KASALLIKLAR KO`RSATKICHini nazardan kechiring.**

Agar siz kasallikning qanday ekanligini bilmasangiz va kasallik jiddiyga o`xshasa, tibbiy yordam olishga harakat qiling.

## XALQ TOMONIDAN KASALLIKLARGA BERILGAN NOMLARDAN MISOLLAR


BOSH OG`RIQ quyidagilardan biri sababida kelib chiqishi mumkin:



- Ruhiy siqilish (kuchli xavotirlanish, stress)dan kelib chiqqan bosh og`riq: bosh siqib og`riydi, og`riq doimiy bo`lishi yoki bir necha soat davom etishi mumkin.
- Migrenli bosh og`riq: birdan keladigan qattiq bosh og`riqlar, qayt qilish, yorug`likda ikkala yoki faqat bir ko`zda og`riq turishi bilan davom etishi mumkin. (300-betga qarang)
- Yuqori qon bosimi: agar bu sabab bo`lsa, bosim odatda 140/90 dan ortiq bo`ladi, 245 betdagi „Yuqori qon bosimi“ mavzusiga qarang.
- Tushkunlik: ayniqsa, agar butun bosh doimo og`rib tursa. 333-betga qarang.
- Agar kasalning isitmasi bo`lsa va u juda xasta va lanj bo`lsa, bu meningit bo`lishi mumkin, uni darhol davolash kerak. 14-bobdagi „Meningit“ mavzusiga qarang.
- Kuchayayotgan va borgan sari zo`rayayotgan bosh og`riqlar, ba`zan o`smanning natijasi bo`lishi mumkin. Oldin boshi hech og`rimagan, lekin bosh og`rig`i borgan sari kuchayayotgan odamlar tezda shifokorga ko`rinishlari kerak.

LANJ BO`LISH quyidagilar bilan birga ko`p narsalar sababli kelib chiqishi mumkin:

- Tushkunlik (depressiya yoki xavotirga tushish, 333-334 - betlarga qarang).
- Uxlay olmaslik-uyqusizlik
- Yaxshi oziqlanmaslik yoki og`ir anemiya, 11-bobga qarang.
- Homiladorlik, 19 va 20-boblarga qarang.
- Sil, OITS(SPID, 734-bet), sariq(13-bob) va parazit infeksiyalar (12-bob) singari surunkali kasalliklar
- Qalqonsimon bezning kam gormon ishlab chiqarishi. Bo`qoq bo`lishi mumkin. Yodlangan tuz ishlatilg. 249-betga qarang.





## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

- Qandli diabet (11-bob) va yurak yetishmovchiligi (22-bob) singari boshqa kasalliklar.
- Yuqori qon bosimiga qarshi ishlatiladigan ba`zi dorilar sizni charchatishi mumkin. Agar sizning doringiz bunday ta`sir qilayotgan bo`lsa, shifokoringiz bilan boshqa dori ichish to`g`risida g`plashing.

Ko`pincha charchagan odamlarga „qon bosimingiz pasayib ketdi“ deyishadi. Qon bosimingiz 90/60 dan past bo`lmasa, o`rningizdan turganingizda boshingiz aylanmasa, charchog`ingiz sababini boshqa narsadan izlang. Odamlar biror kishi o`zini charchagandek his qilsa, uning „sovug`i oshib ketibdi“ deyishadi. Agar siz o`zingizni charchagandek his qilsangiz, turli-tuman ovqatlardan iste`mol qilishga e`tibor bering (11-bob).

**YURAK KASALLIKLARI VA YURAKNING TEZ URISHINI** quyidagilar keltirib chiqarishi mumkin:

- Xavotirga tushish yoshlarda, ayniqsa, ayollarda ko`proq uchraydi. 336-betga qarang.
- Yurak kasalliklari odatda 50 dan oshgan odamlarda uchraydi. 23-bob. Isitmasi bor yoshlarda revmatik isitma bo`lishi mumkin. 21-bob.
- Agar kasal vazn yo`qotayotgan bo`lsa, qalqonsimon bez ishi kuchaygan bo`lishi mumkin. 11-bob.
- Ko`p qora choy yoki kofe ichish. 11-bob.
- Og`ir kamqonlik, 11-bob.

### SHAMOLLASH

- Shamollash kabi infeksiyalar, siydik yo`llari yoki quloqlarning bakterial infeksiyalari, bronxit yoki ich ketar, 13-bobga qarang.
- Yuqumli bo`lmagan sabablar: ko`z kasalligi (16-bob), allergik ta`sirlar, astma (13-bob) yoki terining boshqa ko`p holatlari (15-bob).

**BEL OG`RIG`I, BUYRAK SHAMOLLASHI YOKI BELNING PASTKI QISMINING OG`RISHI** bo`yicha 13-bobga qarang.

- Belning tortilib qolishi, bel harakat qilganida og`riydi, bu muskul cho`zilishi yoki umurtqa diskining siljishi bo`lishi mumkin. (13-bob)
- Buyrak toshi yoki infeksiyalanishi. Odatda siyganda og`riq seziladi. 18-bob.
- Tushkunlik (depressiya), ko`pincha belning pastki qismida og`riq sezayotgan odamlarda tushkunlik bo`ladi. 13-bobga qarang.

- Agar isitma bo'lsa, sil kabi suyak infeksiyasi bo'lishi mumkin, 14-bobga qarang.

### NOMLARNING ADASHTIRILISHIDAN KELIB CHIQUADIGAN TUSHUNMOVCHILIKLAR

Zamonaviy tibbiyot tilida rak - infeksiya emas, balki tananing biror joyida paydo bo'ladigan odatdan tashqari o'smadir. Rakning ko'p uchraydigan oddiy turlari quyidagilardir:

Teri raki (396-bet)



Ko'krak bezi raki (505-bet)



Bachadon yoki tuxumdon raki (506-bet)



Tananing istalgan qismida qattiq, og'riqsiz, sekin-asta o'sib boradigan har qanday o'sma rak bo'lishi mumkin. Rak xavfli bo'lib, operatsiya qilinishi kerak.

**Agar rak borligiga gumon qilsangiz, tez tibbiy yordam oling.**

## ISITMA CHIQRUVCHI KASALLIKLARNING ADASHTIRILISHI

Isitma deb **tana haroratining normadan ortib ketishiga** aytiladi.

Kasallikning oldini olish yoki davolash uchun uni boshqalardan ajratish muhimdir.


Quyida muhim belgisi isitma bo'lgan bir necha o'tkir kasalliklar keltirilgan. Chizmalar har bir kasallikda isitmaning **qay tariqa bo'lishini** (isitmaning chiqishi va pasayishi) ni ko'rsatadi.



### Bezgak (O'zbekistonda kam uchraydi.) (352-bet)

Quvvatsizlik, et uvishib, junjikish va isitmalash bilan boshlanadi. Isitma bir necha kun ko'tarilib pasayib turishi mumkin. Isitma ko'tarilganda odam qaltiraydi, pasaygandan so'ng terlaydi. Isitma har 2 yoki 3 kunda bir necha soatga ko'tarilib turadi. Boshqa kunlari kasal tuzuk bo'lishi mumkin.


BEZGAK UCHUN ISITMA JADVALI Egri chiziq harorat ko'tarilishi va pasayishini ko'rsatadi



### Ich terlama (Tifoid) (355- bet) Shamollashdek boshlanadi.

Harorat har kuni oz-ozdan ko'tarilib boradi. Tomir urishi nisbatan sekinlashadi. Ba'zan ich ketadi va suvsizlanish boshlanadi. Qaltiroq yoki alahsirash (bemorning ahvoli juda og'ir) hodisalari bo'lib turadi.

TERLAMA UCHUN ISITMA JADVALI Isitma har kuni oz-ozdan ko'tariladi



## Toshmali terlama (TIF) (358- bet)

Ich terlamaga o`xshash.


Qizamiqdagiga o`xshab, uchlari biroz ko`kargan toshmalar toshadi.

## Sariq kasal (321-bet)

Odamning ishtahasi yo`qoladi. Ovqatlanish yoki chekishni ham xohlamaydi. Ko`ngli aynib, qayt qilgisi keladi. Ko`zining oqi va terisi sarg`ayadi; siydigi to`q sariq yoki jigar rang; axlati oqish bo`ladi. Ba`zan jigar kattalashadi va sezuvchanligi oshadi. Yengil isitma chiqadi. Bemor juda holsiz bo`ladi.

SARIQ KASAL UCHUN ISITMA JADVALI


Umuman isitma yengil bo'ladi



## O`pka shamollashi (Zotiljam) (315-bet).

Tez-tez, sayoz nafas olish, hansirash. Isitma tez ko`tariladi. Odam yo`taladi, ko`k, sariq yoki qon aralash balg`am chiqishi kuzatiladi. Ko`krak qafasida og`riq sezilishi mumkin. Odam og`ir kasal bo`ladi.


O`PKA SHAMOLLASHI (ZOTILJAM, PNEVMONIYA) UCHUN ISITMA JADVALI



## Revmatik Isitma (556-bet)

Bu kasallikka, umuman bolalar va yoshlar ko`proq chalinishadi. Bo`g`inlar og`rib, yuqori harorat ko`tariladi. Bular ko`pincha tomoq og`rig`idan so`ng boshlanadi. Ko`krak qafasida og`riq, qisqa-qisqa nafas bo`lishi mumkin. Qo`l va oyoqlar odamning ixtiyoridan tashqari harakatlanadi.


REVMATIK ISITMA UCHUN ISITMA JADVALI



## **Brutsellyoz (354-bet)**

Asta-sekin charchash, bosh va suyak og'riqlari bilan boshlanadi. Odam kechalari isitmalab, terlaydi. Isitma bir necha kunga yo`qolib ketadi, so`ng qayta keladi. Bu oylab yoki yillab davom etadi

BRUTSELLYOZ UCHUN ISITMA JADVALI




kasallik haftalari

Peshin paytida isitma to'liqinsimon bo'lib keladi, kechasi tushadi

## **Tug`ruqdan keyingi isitma (501-bet)**

Tug`ruqdan keyingi birinchi kuni yoki kechroq boshlanadi. Boshlanishida past bo`lib, keyinchalik ko`tariladi. Sassiqlik hid bo`lishi va qin yiringlashi mumkin. Og`riq va ba`zan qon ketishi kuzatiladi.

TUG`RUQDAN KEYINGI ISITMANING JADVALI



bola tug'lgandan keyingi kunlar

**Yuqoridagi barcha kasalliklar xavfli bo`lishi mumkin.** Yuqorida aytilganlarga o`xshash belgilar va isitma bilan o`tdigan kasalliklar ko`p. Ushbu kasalliklarni ajratish qiyin. Ularning ko`pi anchagina jiddiy bo`ladi. Iloji bo`lgan mahallarda tibbiy yordamga murojaat qiling.